


IX. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT



2022- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi 608,1 mln. AQSH dollarni tashkil etgan, jumladan 271,2 mln. AQSH dollarini-eksport, 336,8 mln. AQSH dollarini import tashkil etdi. Tashqi savdo aylanmasining saldosи -65,6 mln. AQSH dollarini tashkil qildi.

Tashqi savdo aylanmasi dinamikasi
(mln. AQSH dollari)



So‘ngi yillarda xukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishni, eksportni qo‘llab-quvvatlash, import o‘rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o‘zgarishga erishildi. Jumladan, xom ashyo eksportidan, qo‘shilgan qiymati yuqori hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo‘naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.

**2022- yil yanvar-iyun oylari viloyat tashqi savdo aylanmasida
MDH va boshqa davlatlarning ulushi**
(mln. AQSH dollar va foizda)



2022- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda amalga oshirilgan tashqi savdo aylanmasi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 116,4 % ga, MDH davlatlari 119,0 % ni tashkil etgan bo‘lsa, boshqa davlatlar 113,8 % ga ko‘paygani kuzatildi.

Jumladan, jami eksport aylanmasi 122,7 % ni va shundan MDH davlatlari 125,5 % ni tashkil etgan bo‘lsa, boshqa davlatlarga 116,1 % ni tashkil etdi.

Jami import aylanmasi 111,7 % ga ko‘paygan bo‘lib, undan MDH davlatlari 109,2 % ni tashkil etgan bo‘lsa, boshqa davlatlar 113,0 % ga ko‘paygan.

MDH va boshqa davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi
(mln. AQSH dollari)

	yanvar-iyun		O'sish sur'ati, % da
	2021- yil	2022- yil	
Tashqi savdo aylanmasi	522,5	608,1	116,4
<i>shu jumladan:</i>			
MDH davlatlari	257,8	306,9	119,0
Boshqa davlatlar	264,7	301,2	113,8
Eksport	221,0	271,2	122,7
<i>shu jumladan:</i>			
MDH davlatlari	155,6	195,2	125,5
Boshqa davlatlar	65,4	76,0	116,1
Import	301,5	336,8	111,7
<i>shu jumladan:</i>			
MDH davlatlari	102,2	111,6	109,2
Boshqa davlatlar	199,3	225,2	113,0

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo'nalishi bo'yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi oziq-ovqat mahsulotlariga to'g'ri kelmoqda, keyingi o'rinnarda eksport hajmi bo'yicha asosan yengil sanoat tovarlari, qora va rangli metallar, mashina va asbob-uskunalar va kimyo mahsulotlariga to'g'ri kelmoqda.

Viloyatdagi eksport-import tarkibi

	Umumiy hajm mln.AQSH.dollr		2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan % da
	2021- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar-iyun	
Eksport tarkibi	221,0	271,2	122,7
Oziq-ovqat va tirik hayvonlar	37,9	33,1	87,2
Ichimliklar va tamaki	0,2	0,6	3,5 m.
Oziq-ovqat bo'lмаган xом ashyo, yoqilg'idan tashqari	4,9	3,7	77,1
Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,3	1,1	3,3 m.
Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar	1,4	4,2	2,9 m.
Ishlab chiqarilgan mahsulotlar	118,8	158,3	133,3
Mashina va transport uskunalari	6,0	2,6	43,0
Har xil tayyor mahsulotlar	45,9	62,2	135,4
Xizmatlar	5,6	5,4	97,9
Import tarkibi	301,5	336,8	111,7
Oziq-ovqat va tirik hayvonlar	42,2	47,9	113,4
Ichimliklar va tamaki	17,1	18,7	109,4
Oziq-ovqat bo'lмаган xом ashyo, yoqilg'idan tashqari	7,1	13,4	189,2
Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar	9,0	11,1	122,9
Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar	35,1	42,4	121,0
Sanoat mahsulotlari	71,7	72,5	101,1
Mashina va transport uskunalari	109,1	121,4	111,3
Har xil tayyor mahsulotlar	9,7	9,5	97,5

2022- yil yanvar-iyun oylarida eksport qilingan mahsulotlar va xizmatlar tarkibi bo'yicha tahlil qilinganda, (2021- yilning tegishli davriga nisbatan), kimyo mahsulotlari 2,9 m. ga, ichimliklar va tamaki 3,5 m. ga ko'paygani kuzatildi.

**2022- yil yanvar-iyun oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasi
yuqori ulushga ega davlatlar**

(ming AQSH dollari)

Davlatlar nomi	Tashqi savdo	Eksport	Import
Rossiya Federatsiyasi	182030,1	127230,9	54799,3
Xitoy	161065,9	23593,7	137472,1
Turkiya	50686,4	27724,1	22962,3
Qirg'iziston	45906,1	39250,5	6655,6
Qozog'iston	45356,9	16736,0	28620,9
Germaniya	14378,8	4026,3	10352,6
Belarus	10791,3	1145,4	9645,9
Koreya Respublikasi	10541,9	1060,3	9481,6
Polsha	9997,0	4989,0	5007,9
Litva	9509,5	676,2	8833,3
Turkmaniston	8081,2	2916,5	5164,7
Ukraina	7240,4	3565,6	3674,8
Xindiston	6025,4	270,6	5754,8
Fransiya	4974,0	29,2	4944,8
Tojikiston	4397,7	2183,2	2214,5
Eron	4143,7	1663,4	2480,3
Italiya	2933,9	960,6	1973,4
Malayziya	2879,2	-	2879,2
Latviya	2760,8	266,4	2494,4
Shvetsariya	1818,1	-	1818,1

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.

Namangan viloyati, jahoning 67 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasida (29,9 %), Xitoy Xalq Respublikasida (26,5 %), Turkiyada (8,3 %), Qirg'iz Respublikasida (7,5 %), Qozog'istonda (7,5 %), Germaniya (2,4 %) va Belarus (1,8 %) qayd etilgan.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

2022- yil yanvar-iyun oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida katta ulushga ega bo'lgan davlatlar

Davlatlar nomi	Viloyat tovar aylanmasida ulushi % da	2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan % da
Rossiya Federatsiyasi	29,9	125,8
Xitoy	26,5	117,0
Turkiya	8,3	100,1
Qirg'iziston	7,5	145,3
Qozog'iston	7,5	78,5
Germaniya	2,4	222,1
Belarus	1,8	179,4
Koreya Respublikasi	1,7	206,7
Polsha	1,6	133,3
Litva	1,6	622,3
Turkmaniston	1,3	127,9
Ukraina	1,2	95,7
Xindiston	1,0	59,5
Fransiya	0,8	121,2
Tojikiston	0,7	165,9

Davlatlar nomi	Viloyat tovar aylanmasida ulushi % da	2021- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan % da
Eron	0,7	166,6
Italiya	0,5	62,3
Malayziya	0,5	67,4
Latviya	0,5	263,1
Shvetsariya	0,3	113,5

2022- yil yanvar-iyun oylarida jami eksport tovarlari hajmida tarmoqlarning ulushi (% da)

■ Oziq-ovqat va tirik hayvonlar

■ Ichimliklar va tamaki

■ Oziq-ovqat bo'lмаган xom ashyo,
yoqilg'idan tashqari

■ Mineral yoqilg'i, moylash moylari va
shunga o'xshash materiallar


■ Kimyoviy moddalar va shunga
o'xshash mahsulotlar

■ Ishlab chiqarilgan mahsulotlar

■ Mashina va transport uskunalari

■ Har xil tayyor mahsulotlar

■ Xizmatlar



2022- yil yanvar-iyun oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida amalga oshirilgan eksportning umumiyligi hajmiga nisbatan yengil sanoat ulushi 58,3 %, har xil tayyor mahsulotlar eksportining ulushi 22,9 % ni hamda oziq ovqat va tirik hayvonlar eksportining ulushi esa 12,2 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar eksporti hajmi 5440,7 ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 2,0 % ni tashkil etib, o'tgan- yilning mos davriga nisbatan 97,9 % ga kamayganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari, turizm xizmatlari, moliyaviy xizmatlaridan iborat.


**2022- yil yanvar-iyun oylarida jami eksport tovarlari
hajmi shahar va tumanlar kesmida**
(ming AQSH dollari)

	Yanvar-iyun		O'sish sur'ati, % da
	2021- yil	2022- yil	
Viloyat bo'yicha jami	221 047,4	271 246,7	122,7
Namangan sh.	72548,8	85142,7	117,4
Mingbuloq	12085,0	8173,1	67,6
Kosonsoy	15711,7	20860,3	132,8
Namangan t.	10283,3	14015,9	136,3
Norin	8914,1	3701,5	41,5
Pop	7215,0	9064,2	125,6
To'raqo'rg'on	40457,0	51248,5	126,7
Uychi	19933,9	23034,5	115,6
Uchqo'rg'on	14602,2	20789,3	142,4
Chortoq	3606,7	884,7	24,5
Chust	7965,9	20643,8	2,6 m.
Yangiqo'rg'on	4869,0	11608,8	2,4 m.

TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

To‘qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘sishimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko‘rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 158,3 mln.AQSh dollarlik to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiylashtirilganda eksportning 58,3 % ini tashkil etdi va o‘tgan yilga nisbatan 133,2 % ga o‘sdi.

**2022- yil yanvar-iyun oylarida viloyat eksportida
asosiy hamkor davlatlarning ulushi, (% da)**



Viloyatdan eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkiya, Polsha va Germaniya davlatlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Bu esa umumiylashtirilganda eksport xajmining 89,8 % tashkil qiladi.


Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkiya, Polsha va Germaniya davlatlariga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan yengil sanoat mahsulotlari oziq-ovqat mahsulotlari guruqlaridan iborat ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

**2022- yil yanvar-iyun oylarida jami import tovarlari
hajmi shahar va tumanlar kesmida**
(ming AQSH dollari)

	Yanvar-iyun		O'sish sur'ati, %da
	2021- yil	2022- yil	
Viloyat jami	301 469,4	336 823,5	111,7
Namangan sh.	127235,4	135943,9	106,8
Mingbuloq	17996,5	4551,2	25,3
Kosonsoy	21971,9	26388,8	120,1
Namangan t.	21236,5	23101,8	108,8
Norin	19466,6	13039,3	67,0
Pop	10695,9	9893,0	92,5
To'raqo'rg'on	12504,2	14958,9	119,6
Uychi	16590,0	27527,4	165,9
Uchqo'rg'on	3547,7	8090,0	2,3 m.
Chortoq	9148,8	22199,8	2,4 m.
Chust	18958,4	37977,6	2,0 m.
Yangiqo'rg'on	20094,3	13149,0	65,4

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida amalga oshirilgan importning umumiy hajmiga nisbatan mashina va uskunalar importining ulushi 36,0 % ni, sanoat mahsulotlari importining ulushi 21,5 % ni, oziq-ovqat mahsulotlari importining ulushi 14,2 % ni hamda Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar importining ulushi esa 12,6 % ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-iyun oylarida jami import tovarlari hajmida tarmoqlarning ulushi (% da)



2022- yil yanvar-iyun oylarida viloyat importida asosiy hamkor davlatlar ulishi, (% da)

2022- yil yanvar-iyun oylarida viloyatga 60 ta xorijiy davatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shundan 9 ta eng yirik bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Turkiya, Germaniya, Belarusiya va Respublika Koreya kabi xamkor davatlarning jami import hajmi 273 334,6 ming AQSH dollarga teng. Bu esa umumiyl import hajmining 81,2 % ni tashkil qiladi.

